

UDK: 911.3:911.37 (911.372.2)

Xoshimov Abdumutalib Mamadaliyevich

Andijon Davlat universiteti katta o'qituvchisi

Javlonbek Mamadaliev Abdumutalib o'g'li

Xo'jaobod tumani ixtisoslashgan maktab oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

Khoshimov Abdumutalib Mamadaliyevich

Senior lecturer, Andijan State University

Javlonbek Mamadaliev Abdumutalib oglu

Higher category geography teacher, Khojaabad district specialized school, independent
researcher

Хошимов Абдумуталиб Мамадалиевич

Старший преподаватель Андижанского государственного университета

Мамадалиев Джавлонбек Абдумуталиб оглы

Учитель географии высшей категории специализированной школы

Ходжаабадского района, независимый исследователь

IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF ECOLOGICAL- GEOGRAPHICAL ASSESSMENT OF LAND FUND

Abstract

The article presents information on the current state of land resources, including the categories and types of land resources, assessment of the ecological and economic state, and general assessment, along with the opinions of many scientists about the land fund. In addition, this study presents theoretical aspects such as mapping the results of the assessment, as well as how to zone them.

Keywords: Natural resource, policy, land resource, soil, territory, lalmikor, obikor, historical and cultural monument, reserve land, forest fund land, cadastre, heavy industry, light industry, natural reserves, ecological park, cartographic reference

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ЭКОЛОГО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ЗЕМЕЛЬНОГО ФОНДА

Абстрактный

В статье приведены сведения о категориях и типах земельных фондов, оценка эколого-экономического состояния и общая оценка, а также мнения многих ученых в настоящее время. Кроме того, в ходе данного исследования рассматриваются теоретические аспекты, такие как картирование результатов оценки, а также порядок их зонирования.

Ключевые слова: Природный ресурс, политика, земельный ресурс, почва, территория, суша, памятник истории и культуры, земли запаса, земли лесного фонда, кадастр, тяжелая промышленность, легкая промышленность, природный заповедник, экологический парк, картографическая справка.

YER FONDINI EKOLOGIK-GEOGRAFIK BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya

Maqolada hozirgi davrda ko'plab olimlar tomonidan yer fondi haqidagi fikrlar bilan birgalikda, yer fondi toifa va turlari, ekologik-xo'jalik holatini baholash, umumiy baholash singari malumotlar keltirilgan. Undan tashqari mazkur tadqiqot davomida baholash natijalarini xaritalashtirish, shu bilan bir qatorida ularni qay tartibda rayonlashtirish singari nazariy jihatlari yoritib keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy resurs, siyosat, yer resursi, tuproq, hudud, lalmikor, obikor, tarixiy-madaniy yodgorlik, zahira er, o'rmon fondi er, kadastr, og'ir sanoat, yengil sanoat, tabiiy rezervar, ekologik bog', kartografik ishora

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, aholi turmush farovonligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlash natijalari qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga uzviy bog'liq. Mazkur so'zlarning yaqqol tasdiqi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevralda imzolagan Farmonida "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" ning uchinchi bo'limi "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish"[1] deb nomlanishi qishloq xo'jaligiga mamlakatimizda jiddiy e'tibor qaratganidan dalolat beradi.

Shundan kelib chiqib barcha sohalarida bo'lgani kabi geografiya faniga mamlakatimizning mustaqillikga erishganidan so'ng e'tibor kuchaytirilib, tadqiqotlarni olib borish ishlariga sharoitlar yanada yaxshilandi. Aristotelning yer resurslari haqidagi fikrlari asosan uning tabiiy fanlar va iqtisodiyotga oid nazariyalariga asoslanadi. U yer resurslarini, jumladan, qishloq xo'jaligi, mineral boyliklar va boshqa tabiiy resurslar bilan bog'liq masalalarni o'rganishga harakat qilgan.

Bu sohadagi yutuqlar zahirida yer resurslaridan oqilona foydalanish yotadi. Shu bois, respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yer munosabatlarini takomillashtirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda qabul qilingan «yer kodeksi» (2012) yer resurslaridan oqilona, samarali foydalanish, qishloq xo'jaligida mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

- **Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (Literature review).** Mamlakatimizda ko'plab tadqiqotchilar yer fondidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ekologik-geografik masalalarni o'rgangan. Jumladan, Dokuchaev(1951), Minsk A.A.(1972), Zamkov O.K.(1978), Zvorkin K.V.(1984), Tolipov G.A.(1994), Yu.G.Saushkin(2001), Jumaev T.J.(2004), V.A.Pulyarkin (2000), Kochurov B.I. (2009), Yu.I.Ahmadaliev (2014) kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida dunyodagi va mamlakatimiz yer fondidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib, bir qator ishlar amalga oshirilgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Dunyodagi yer resurslarini barcha olimlar o'z tadqiq etgan hududdan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi, tuproqlar sifat jihatdan o'zgarishi, yer fondi turlari singari turli tarmoqlarini o'rganib o'z taklif va mulohazalar qilishgan. Mazkur olimlar qatorida, Dokuchaev,

B.I.Kochurov, V.A.Pulyarkinlar tomonidan taklif etilgan usullardan foydalanilmoqda. Mamlakatimizdagi geograf olimlar ham yer resurslariga doir ko'plab ilmiy izlanishlar olib brogan. Mazkur olimlar qatorida V.G.Kryuchkov, A.M. Nosonov, Kaluskov V.N. O'zbekistonlik olimlardan A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.Raxmatullaev, A.O'razbaev, S.B.Abbosov A.Maqsudov, A.A.Rafiqov, Yu.Shadametov, T.Djumaev, A.N.Nigmatov, B.Kamolov, K.Boymirzaev, Yu.I.Ahmadaliev O.Abdug'aniev, F.Yuldashev, R.Qo'ziev, D.Mo'minov, N.Alimdjonov singari olimlar tadqiqotlarida taklif etilgan usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilayotgan izlanishlar natijasida yer fondidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi tomonlari o'rganib borilmoqda: Barqaror rivojlanishning yer resurslari bilan bog'liq ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;

Yer fondi landshaft tarkibi va uning o'zgarish darajasi bo'yicha ekologik gomogen guruxlarga ajratish uslubini takomillashtirish va nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish;

Qishloq joylarida geoekologik-xo'jalik muvozanatni tabiatdan foydalanishning tabiiy-tarixiy, tovar-maqsadli va dastur-maqsadli turlarida (zamonda) o'zgarish jarayonini tahlil etish;

Hududini nisbiy ekologik zo'riqish koeffisientini, yer fondiga tushadigan xususiy antropogen yuk miqdorini aniqlash, rayonlashtirib, kartalashtirish, geoekologik vaziyatni takomillashtirishning asosiy tadbirlarini amalga oshirishning landshaftli dasturini tavsiya etish singari boshqa ko'plab ilmiz ishlar amalga oshirilmoqda.

-Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yer fondini ekologik-geografik baholashni takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar qadimdanoq o'rganila boshlangan. Dastlabki yer resurslarini tadqiq etgan insonlardan Aristotel bo'lib u yer resurslariga oid ba'zi asosiy g'oyalaridan biri keltirilgan: "Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar Aristotel qishloq xo'jaligini inson hayoti uchun muhim deb hisoblagan. U Yerning unumdorligini, tuproqni ishlatish va ekinlarni parvarish qilishning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, yaxshi tuproq va iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligi

mahsulotlarining sifatiga va hosildorligiga ta'sir qiladi". Umuman olganda, Aristotelning yer resurslari haqidagi qarashlari uning tabiatga bo'lgan e'tibori, iqtisodiy faoliyatni tushunishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga bo'lgan intilishlari bilan bog'liqdir. Uning fikrlari keyinchalik iqtisodiyot va ekologiya sohalarida o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Rossiyalik geograf Yu.G.Saushkin ta'kidlab o'tganidek "Bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga o'tish eski tuzumdagi ishlab chiqarish va noishlabchiqarish tarmoqlarining joylanishiga ta'sir etmasa-da, ular o'rtasidagi munosabat va aloqalarni o'zgartiradi, bu esa oqibat natijada ularni hududiy tashkil etishning o'zgarishiga olib keladi" [10].

Ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish davomida jamiyat hayotini uchun dolzarb bo'lgan ilmiy takliflar olib kirish, yangicha yondashishlar nafaqat vatanimizda balki, dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarda sodir bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Izlanishlarni yangicha yondashishlar sababi, hozrgi keskinlashib borayotgan va ekologik muammolar yuzaga kelayotganini hisobga olgan holda, o'sha paytlardayoq barqaror rivojlanish yo'li tanlanganligi ham aytish mumkin. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar yer resurslariga ham ta'sir qilmay qolmayapti. Shuning natijasida erdan foydalanishni hududiy tashkil qilishni zamon talabidan kelib chiqib, yangidan-yangi usullari yaratishni va bu usullar avvalo atrof muhitga kam zarar keltirilishi lozimligi asosiy maqsad qilib olinmoqda.

Zamonaviy ilmiy va maxsus adabiyotlarda insonlarning "tuproq", "yer", "yer resurslari" "yer fondi" va "hudud" tushunchalari yanada chuqurroq tadqiq etilib, keng qo'llanilayapti. Yuqoridagi, tushunchalar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning mazmuni, ma'nosi, ko'lami va qo'llanishi mumkin bo'lgan o'rinlari turlichadir.

Yer resurslaridan foydalanishda tuproq o'rni beqiyosdir. Tuproq litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta'sirida o'zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o'zaro bog'liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; yer po'stining yuza va unumdor qatlami. Tuproq haqida hozirgacha juda ko'plab olimlar ta'rif berishgan, lakin bu tariflardan eng maqbuli B.B.Dokuchaevning quyidagicha tarifidir: "tuproq - iqlim, organizmlar, grunt, mahalliy relyef va o'lkaning yoshi kabi

omillarning birgalikdagi faoliyati ta'sirida paydo bo'ladigan tabiiy-tarixiy hosiladir" (Dokuchaev, 1951). Tuproqning tarkibida quyidagilar mavjud: tuproq mikroorganizmlari, chuvalchanglar, mollyuskalar, hasharotlar vakillaridan hamda yerni o'yuvchi umurtqalilardan tashkil topgan. Biz tuproqqa quyidagicha ta'rif beramiz: "tuproq o'simliklar o'sishi, rivojlanishi, uchun zarur, unumdorlik xususiyatiga ega bo'lgan, ona jinsi, mikroorganizmlar, chuvalchanglar, mollyuskalar, hasharotlardan tashkil topgan iqlimiy, relyef va quyosh nuri kabi omillar ta'sirida vujudga keladigan murakkab tabiiy hosilani" aytish mumkin.

Yer resurslari "qishloq xo'jaligi uchun foydalanish mumkin bo'lgan yerlar" hisoblanadi. yer resurslari tushunchasini ko'plab olimlar tomonidan ilmiy adabiyotlarda ta'riflar berilgan (Minsk A.A, 1972; Zamkov O.K., 1978; Zvorkin K.V, 1984; Tolipov G.A, 1994; Jumaev T.J, 2004; Yu.Ahmadaliev, 2014). Jumladan mazkur ta'riflarni ichida eng maqbullardan biri Yu.Ahmadaliev tomonidan berilgannidir:» yer resursi bu - yer fondining tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos tuproq sifati, iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida undan asosan zarur mahsulotlar etishtirishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi" [4]

Yer fondi mamlakatning jami yer resurslari maydoni hisoblanadi va barcha foydalaniladigan bir nechta toifalar bo'yicha izlanishlar olib boriladi. Yerlarni toifalarga bo'lish va bir toifadan boshqasiga o'tkazish. Yerlar asosiy foydalanish maqsadiga qarab yer fondi toifalariga bo'linadi. Bu yer fondi turlari har bir mamlakatda yoki mintaqada farq qilishi mumkin, chunki ularning ta'rifi va tasnifi mahalliy qonunlarga va an'analariga bog'liq.

Yer fondining toifalari va turlari uning turli foydalanish maqsadlariga qarab farqlanadi. Har bir toifa va tur o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni boshqarish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni saqlash uchun bu toifalar va turlarni to'g'ri boshqarish zarurdir. Biz tadqiqot ishimizni bevosita qishloq xo'jaligidagi yerlariga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan

yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikasiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofaza qilinishi lozim. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qishloq xo'jaligidan o'zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yerlarga o'tkazishga alohida hollarda ushbu kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yo'l qo'yiladi.

Dunyo miqyosida tadqiq etgan olimlardan V.A.Pulyarkinning ta'kidlashicha "mustamlaka sharoitiga tushib qolgan mamlakatlarda erdan foydalanish sohasida yuz beradigan birinchi jarayon tovar ekinlarni kiritilishi va bu hududlar iqtisodiyotini metropoliya davlatlarining agrar xom-ashyo quyrug'iga aylanib qolishidir"[11].

Mazkur mustamlaka tuzim asoratlari dunyodagi ko'plab davlatlarda bo'lgani singari bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q.

SSSR Minstrlar Soveti Komunistik Partiyasi Markaziy Komitetida Paxta etishtirishni oshirish uchun O'zbekiston SSSR va Qozog'iston SSSR dashtlaridagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orish haqida 1956-yil 6-avgustdagi qarori haqida quyidagi olimlar fikr bildirishadi: A.I.Chistobaev va M.D.Shariginlar (1990.127 b.)

Adabiyotlarda qayd etilishicha, 1961 yildan orol dengizining suv sathi pasaya boshladi (Problemi... 1969). Ko'plab olimlar Orolni ham, Kaspiy va baykal ko'llari kabi qutqarish kerak, degan fikrlarga ko'ra, O'rta Osiyo geografiyasini "bilimdoni" deya ta'riflashadigan olim C.Yu.Geller shunday deb javob yozadi: " Orol dengizini qurishda uni Kaspiyga qiyoslash maqsadga muvofiq emas, chunki suvdan foydalanishdan keladigan iqtisodiy samara turlicha qolaversa, daryo suvi butunlaysug'orishga ishlatilsa, Orolning baliqchiligidan 100 marta ko'p foyda olish mumkin" (Problem,1969, 7 b).

2015-yilda Rossiyada Farg'ona vodiysi sug'oriladigan yerlarni o'rganish buyicha A.N.Nikonorova Dissertasiya yoqlab, u "Sug'oriladigan yerlarda suvni tejashning

"ichki" zaxiralarini baholash Fargʻona vodiysi omillari va sharoitlarini aniqladi". Demak, vodiy hozirda ham chet davlatdagi olimlarni oʻziga jalb qilmoqda.

Baholash natijalarini xaritalashtirish tadqiqot usullaridan baholash jihatdan eng tushnarli va ko‘zga yaqqol tashlanadigan kartografik metod baholash jarayonida tadqiqot jarayoni usullaridan biri hisoblanadi. (Kartografik metodi o‘rganilayotgan hududiy komplekslarni va komponentlarni haritalashtirish va xaritalarni tahlil etish metodi). Mazkur usulda foydalanishda rus olimlaridan S. E. Salnikov (1993) tomonidan amalga oshirilgan.



1- rasim. “Pravda” gazetasi 1956.09.11. №224.

Yuqoridagi baholash haqidagi ayrim ma'lumotlar muayyan hudud erdan foydalanishning mavjud holatiga iqtisodiy georafik, geoeologik nuqtai-nazardan ishonchli ilmiy «tashxis» qo'yishga hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishni hududiy tashkil etishni takomillashtirishga ko'maklashadi.

Baholash natijalarini xaritalashtirish — bu ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim etish jarayoni bo'lib, u ko'pincha geografik yoki statistik xaritalar yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon, odatda, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish; 2. Ma'lumotlarni tayyorlash; 3. Xaritani tanlash; 4. Vizualizatsiya; 5. Tahlil va sharhlash; 6. Taqdimot;

Baholash natijalarini xaritalashtirish jarayoni, ma'lumotlarni yanada tushunarli va qiziqarli qilishga yordam beradi, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kartografik metod- tadqiq etilyotgan hududni so'ngi yillardagi (5, 10, 15, 20 .. yillardagi) geografik o'rinda, relyefda, havoda, tabiatida sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni kuzatish natijasida Aerokosmonavtik moslamalar yordamida olingan sur'atini sinchiklab o'rgangan holda geografik qobiqdagi tadqiq etilayotgan tegishli bo'lgan qismini xaritaga tushiriladigan va tahlil qilish metodi hisoblanadi.

Kartografik imzo tizimini takomillashtirish, to'g'ridan-to'g'ri idrok qilish, fazoviy tahlil va umumlashtirish uchun xaritalarning ko'rinishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash natijasida erishilgan yuqori ma'lumot sig'imi (ma'lumotlarning "siqilish darajasi") ilmiy va amaliy tadqiqotlar jarayonida kartografik usulni ajralmas holga keltiradi [13].

Kartografik usul yordamida hududning tashqi qiyofasi tasvirlanayotganda berilayotgan elementlar soni qancha ko'p bo'lsa xarita shuncha yuzaroq tasvirlanadi. Agar xaritada berilayotgan elementlar soni qancha kam va chuquqrroq berilsa tadqiqot ishini shuncha aniq yoritadi. Kartalarni mavzular bo'yicha guruhlash bilan bir qatorda, ya'ni kartalar turlarini ajratish bilan bir qatorda, kartalarning turlarini ham hisobga olish kerak. Umumiy qabul qilingan tasnifga ko'ra, xarita turlari sub'ektlarning kengligi, kartografik hodisalarni o'rganish usullari, ob'ektivlik darajasi va amaliy yo'nalishi bilan ajralib turadi [8]

Kartografik ishoralar tizimini takomillashtirish, to'g'ridan-to'g'ri idrok etish, fazoviy tahlil va umumlashtirish uchun xaritalarning ko'rinishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali erishilgan kartografik materiallarning yuqori ma'lumot sig'imi (ma'lumotlarning "siqilish darajasi") ilmiy va amaliy tadqiqotlar jarayonida kartografik usulni ajralmas holga keltiradi [9]

Yer fondi baholash natijalarini xaritalashtirish — bu yer resurslarining holatini va foydalanishini vizual tarzda aks ettirish jarayonidir. Bu jarayon, yer fondining turli jihatlarini (masalan, tuproq unumdorligi, ifloslanish darajasi, suv resurslari va boshqalar) xaritalar orqali ko'rsatish imkonini beradi.

Natijalarni rayonlashtirishda tadqiqod ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, ajratilgan landshaft asosidagi yer turlaridan kelib chiqib turli rayonlashtirish o'tkaziladi. Hududni erdan foydalanishning tarixiy va mahalliy xususiyatlarini tahlil qilish, to'plangan malaka, ko'nikma va tajribalarini baholash uchun dastlab tarixiy geografik rayonlashtirish o'tkaziladi. Tabiiy omillarni hisobga olgan holda hududni rayonlashtirish kerak. Rayonlashtirishda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda guruhlariga ajratish mumkin. Masalan : tabiiy geografik xususiyatlarga geomorfologik-geologik tuzulishi, iqlimi, relyefi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproqlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda rayonlashtiriladi.

Olimlardan B.B.Proxorov (1998) tomonidan aniqlangan antropoekologik rayonlashtirish hududni inson ekologiyasi nuqtai nazaridan o'rganish uchun muhim usul hisoblanadi: hududlarni yashash sharoitlariga, demografik xulq-atvorga va aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan belgilar bo'yicha taqsimlash.

Rayonlashtirish jarayoni yer fondi baholash natijalarini aniqroq tushunishga yordam beradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu jarayon orqali har bir rayonning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari aniqlanadi, bu esa barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yer fondini ekologik-geografik baholash metodikasini takomillashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishni oshirish uchun muhimdir. Quyida bu jarayonda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar keltirilgan: 1. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish (Geoinformasion tizimlar, Uzoqdan zondlash); 2. Ekologik indikatorlar (Indikatorlarni tanlash, Indikatorlarning integrasiyasi); 3. Model va prognozlar (Matematik modellar, senariy tahlili); 4. Barqaror rivojlanish strategiyalari (Resurslardan foydalanish, Mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash); 5. Monitoring va

baholash (Davriy monitoring, natijalarni baholash); 6. Ta'lim va axborot (O'qitish dasturlari, axborot almashinuvi); 7. Integrasiya (Multidisciplinar yondashuv,) ekologiya, geografiya, iqtisodiyot va boshqa sohalarni birlashtirib, kompleks baholash tizimini yaratish;

Ushbu jihatlar yer fondini ekologik-geografik baholash metodikasini yanada takomillashtirishga yordam beradi va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yer fondini ekologik-geografik baholash metodikasini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni, multidisciplinar yondashuvlarni va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash zarurligi ko'rinadi. Bu esa nafaqat yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Geografik rayonlashtirish mavzusi geografiya, iqtisodiyot va ekologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi hududlarni ularning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra tasniflash va boshqarishdir. Quyidagilar geografik rayonlashtirishning ahamiyati va uning asosiy jihatlarini yoritadi:

1. Hududiy taqsimot; 2. Iqtisodiy samaradorlik; 3. Ekologik muvozanat; 4. Ijtimoiy rivojlanish; 5. Mahalliy xususiyatlar; 6. Monitoring va tahlil; 7. Barqaror rivojlanish:

Yuqoridagilar geografik rayonlashtirishning ahamiyatini va uning turli sohalarga ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu jarayonni takomillashtirish orqali hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishni oshirishni inobatga ekologik-geografik baholashning ahamiyati va asosiy jihatlarini sifatida quyidagilarni taklif sifatida aytish mumkin: 1. Ekologik holatni aniqlashda ekologik geografik baholash orqali hududning ekologik holati, tabiiy resurslar va ularning taqsimoti haqida aniq ma'lumotlar to'plash va ma'lumotlar atrof-muhitni boshqarishda muhim ahamiyatga egaligi o'rganilishi lozim. 2. Baholash jarayoni inson faoliyatining tabiiy muhitga ta'sirini o'rganish bu orqali antropogen omillar, masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi va shaharsozlikning ekologik oqibatlarini aniqlash mumkin. 3. Ekologik geografik baholash natijalari barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo'ladi. Bu jarayon orqali resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza

qilish choralarini belgilash mumkin. 4. Baholash jarayoni ekologik xavf-xatarlarni, masalan, ifloslanish, iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar kabi muammolarni aniqlashga yordam beradi. U holda oldini olish choralarini ko'rishga imkon beradi. 5. Ekologik geografik baholash ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ham hisobga oladi, u aholi ehtiyojlari va resurslardan foydalanishni muvozanatlash imkonini beradi. 6. Har bir hududning o'ziga xos ekologik sharoitlari va mahalliy xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bu mahalliy aholi uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. 7. Ekologik geografik baholash doimiy monitoring va nazorat bo'lishi kerak. Bu jarayon orqali hududlarning ekologik holati va rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. 8. Ekologik geografik baholash jarayoni orqali aholi va mutaxassislariga atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish haqida ma'lumot berish imkoniyati yaratiladi, bu esa ekologik xabardorlikni oshiradi. Ekologik-geografik baholash ahamiyatini va uning turli sohalarga ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu jarayonni takomillashtirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevralda imzolagan Farmoniga muvofiq joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlanib 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqat inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ILMIY-USLUBIY RISOLA, Toshkent "MA'NAVIYAT" 2017., 5-6 bet.

2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. G tom, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti., Toshkent-2000., 180 b

3. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari : «Yer kodeksi»(2012,12 modda,5 b.)

4. Ahmadaliev Yu., yer resurslardan foydalanish geoekologiyasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent- 2014, 13,16, b

5. Ahmadaliev Yu., etnoekologiya. "Classic" nashriyoti, Farg'ona-2021, 13,16, 24 b

- 6.Ivanov K.I., Ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy tizimi.-M.:Mo'sl,1975. 269 b
- 7.Kochurov B.I., Mintaqaviy ekologiya muammolari., Rossiyaning muvozanatli ekologik va iqtisodiy rivojlanishi., Moskva. Mintaqaviy tadqiqotlar №1., 57 b.
- 8.Kochurov B.I., Geoekologik xaritalash. Moskva nashriyot markazi "Akademiya". 2009. - 6 b
- 9.Kochurov B.I., Geoekologiya: ekodiagnostika va hududning ekologik-iqtisodiy muvozanati. Moskva. 1999. – 3,4, 18 b
- 10.Saushkin Yu.G. Tanlangan asarlar.– Smolensk: Universitet, 2001. -416 b.
- 11.Pulyarkin V.A. Egorov I.D. Rivojlanayotgan mamlakatlar: atrof-muhitni boshqarish va iqtisodiy o'sish. - Yakutsk: Bichik. 2000. - 192 b.
12. N.To'xliev, N. Xolmatov, Sh.Ermamatov, Q. Haqberdiev.«O'zbekiston Iqtisodiyoti» Toshkent «O'zbekiston» 2018.
13. L.I.Egeronkov, B.I.Kochurov, Geoekologiya. Moskva "MOLIYA VA STATISTIKA" 2005. 9, 91, 117 b.